



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

JIZZAX VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOTLAR



2024- yil 1- noyabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi

KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI


So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo'llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag'batlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2024- yil 1- noyabr holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari **18 968** tani tashkil etdi, ulardan kichik korxona va mikrofirmalar **15 855** ta.

Shuningdek, ushbu davrga **32 371** ta korxona ro'yxatdan o'tib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **106,9** foizni tashkil etdi.

Korxona va tashkilotlar soni to'g'risida umumiylumotlar

(1- noyabr holatiga)




**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
(2024- yil yanvar-oktabr holatiga)**

2024- yil yanvar-oktabr oylarida viloyatda yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 3 997 tani tashkil etdi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'sishi kuzatilmoxda. Jumladan: Jizzax shahri (907 taga), G'allaorol tumani (454 taga) va Sharof Rashidov tumanida (424 taga) o'sish mavjud. Tarmoqlar kesimida esa eng yuqori ko'rsatkichni qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 1 121 taga, savdo – 1 009 taga va sanoat – 866 taga ko'paygani bilan izohlash mumkin.


**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**




(2024- yil 1- noyabr holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2024- yil 1- noyabr holatiga 18 968 tani tashkil etdi, ulardan 15 855 tasi tadbirkorlik subyektlari.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiyl sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 27,9 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 17,4 foiz, sanoat – 12,9 foiz, qurilish – 6,8 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Jizzax shahrida – 26,0 foiz, tumanlardan Sharof Rashidov – 13,3 foiz, G'allaorol – 9,3 foiz, Zomin – 9,0 foiz va Baxmalda – 7,6 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



(2024- yil yanvar-oktabr holatiga)

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo‘lmoqda. 2024- yil yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 3 905 ta bo‘lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 3 889 ta;
- yirik korxonalar 16 tani tashkil etdi.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Jizzax sh.	876
G‘allaorol t.	449
Sh.Rashidov t.	411
Zomin t.	385
Forish t.	317
Baxmal t.	292
Arnasoy t.	273
Zarbdor t.	241
Paxtakor t.	173
Do’stlik t.	145
Yangiobod t.	119
Zafarobod t.	115
Mirzacho‘l t.	109

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2024- yil 1- noyabr holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024- yil 1- noyabr holatiga 15 941 tani tashkil etdi, ulardan 15 855 tasi kichik korxona va mikrofirmalar.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 33,2 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 20,5 foiz, sanoat – 15,4 foiz, qurilish – 7,9 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 7,5 foiz, tashish va saqlash – 2,4 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 1,6 foiz, axborot va aloqa – 1,4 foiz, boshqa turlari – 10,1 foiz.

Yillar kesimida soni

(birlikda)




Hududlar kesimida soni

(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni


(birlikda)




(2024- yil yanvar-oktabr holatiga)

Mamlakat iqtisodiyoti “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili-kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.

Shunda, 2024- yil yanvar-oktabr oylarida sanoat sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2023- yilning mos davriga nisbatan 724 tadan 865 taga (o‘sish 141 taga), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 1 037 tadan 1 118 taga (o‘sish 81 taga) ko‘paydi.


Yillar kesimida soni*(birlikda)***Hududlar kesimida soni***(birlikda)*

Jizzax sh.	873
G‘allaorol t.	448
Sh.Rashidov t.	409
Zomin t.	385
Forish t.	317
Baxmal t.	289
Arnasoy t.	272
Zarbdor t.	240
Paxtakor t.	172
Do‘sstlik t.	145
Yangiobod t.	119
Zafarobod t.	111
Mirzacho‘l t.	109

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni*(birlikda)*

(2024- yil 1- noyabr holatiga)

Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Jizzax shahrida (26,5 foiz), Sharof Rashidov (13,8 foiz), G'allaorol (9,5 foiz), Zomin (8,9 foiz) va Forish (7,6 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda. Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.



2- BO'LIM. KORXONA VA TASHKILOTLARNING IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA MA'LUMOTLAR

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar (2024- yil 1- noyabr holatiga)

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning eng ko'p qismi Forish (18,4 foiz), Sh.Rashidov (12,0 foiz) va Baxmal (10,9 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Forish t.	
Sh.Rashidov t.	398
Baxmal t.	359
G'allaorol t.	345
Zomin t.	252
Zarbdor t.	228
Jizzax sh.	222
Arnasoy t.	202
Mirzacho'l t.	193
Yangiobod t.	149
Zafarobod t.	136
Do'stlik t.	121
Paxtakor t.	93

Yillar kesimida soni (birlikda)



Dehqonchilik va chorvachilik,
ovchilik va bu sohalarda
xizmat ko'rsatish

3 131



15

Baliq ovlash va
akovakultura

O'rmonchilik va
yog'och taylorlash

161



Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

(2024- yil 1- noyabr holatiga)


Sanoat – iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalarini soni jami korxona va tashkilotlarning 12,9 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 94,4 foizini ishlab chiqarish sanoati, 3,2 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash, 1,7 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish va 0,7 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Jizzax sh.	674
Sh.Rashidov t.	379
G'allaorol t.	267
Zomin t.	256
Baxmal t.	140
Forish t.	130
Zarbdor t.	127
Paxtakor t.	119
Do'stlik t.	97
Mirzacho'l t.	76
Arnasoy t.	75
Zafarobod t.	65
Yangiobod t.	46

Yillar kesimida soni (birlikda)



(2024- yil 1- noyabr holatiga)

O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 49,7 foiz ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishidagi korxonalar soni esa 23,1 foiz ulushni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishidagi korxonalar soni 27,1 foiz ulushni tashkil etdi;



Hududlar kesimida soni

(birlikda)

Jizzax sh.	501
Sh.Rashidov t.	187
Zomin t.	101
G'allaorol t.	100
Paxtakor t.	78
Zarbdor t.	64
Baxmal t.	53
Forish t.	49
Do'stlik t.	37
Arnasoy t.	32
Mirzacho'l t.	32
Zafarobod t.	26
Yangiobod t.	23

Yillar kesimida soni

(birlikda)



Bino va
inshootlar qurish

638



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

348



Fuqarolik
obyektlarini qurish

297



(2024-yil 1-noyabr holatiga)

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 100,2 foizi yoki 5 277 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 63,2 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 26,1 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 10,7 foiz ulushni tashkil etdi

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

Jizzax sh.	1 495
Sh.Rashidov t.	728
G'allaorol t.	507
Zomin t.	504
Baxmal t.	382
Paxtakor t.	308
Forish t.	269
Arnasoy t.	267
Zarbdor t.	237
Do'stlik t.	199
Zafarobod t.	163
Mirzacho'l t.	116
Yangiobod t.	110

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

(2024- yil 1- noyabr holatiga)

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2024- yil 1- noyabr holatiga 1 203 taga yetib, ularning 1 199 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:


mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 8,3 foiz ulushini tashkil etdi;

restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-vqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 91,7 foiz ulushini tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Jizzax sh.	389
Sh.Rashidov t.	212
Zomin t.	101
G'allaorol t.	96
Baxmal t.	70
Paxtakor t.	68
Zarbdor t.	57
Forish t.	50
Do'stlik t.	44
Mirzacho'l t.	43
Arnasoy t.	27
Yangiobod t.	25
Zafarobod t.	21

Yillar kesimida soni (birlikda)



Oziq-ovqat va
ichimliklar yetkazish
bo'yicha xizmatlar



(2024-yil 1- noyabr holatiga)

2024-yil 1-noyabr holatiga kompyuter dasturlash va aloqa bo'limida korxona va tashkilotlar soni, axborot va kommunikatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar umumiylar sonining 70,1 foizini;

Axborot xizmatlari va noshirlilik faoliyatini rivojlantirish bo'limida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 18,0 foizini;

Ko'rsatuvalar va teleradioeshittirishlar yaratish hamda kino, videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va yozuvlar ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 11,9 foizni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

Jizzax sh.	118
Paxtakor t.	20
Sh.Rashidov t.	20
Baxmal t.	16
Arnasoy t.	14
G'allaorol t.	12
Zomin t.	10
Zarbdor t.	8
Forish t.	7
Zafarobod t.	6
Do'stlik t.	5
Mirzacho'l t.	4
Yangiobod t.	4

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



Kompyuter dasturlashtirish,
maslahat berish va boshqa
yordamchi xizmatlar

120

43

Aloqa



Noshirlilik faoliyati

23

51

Axborot xizmati
ko'rsatish
sohasidagi faoliyati



Kino-videofilmlar, televizion
dasturlari, fonogrammalar
va musiqali yozuvlarni
ishlab chiqish

6

1

Dasturlar yaratish bo'yicha
faoliyat va teleko'rsatuv
va radioeshittirish



(2024- yil 1- noyabr holatiga)

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 331 ta yoki 1,7 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

ushbu sohadagi korxonalar sonining 92,7 foizi sog'liqni saqlash yo'nalishidagi korxonalar soni 5,1 foizni tashkil etdi;

yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 5,1 foizni tashkil etdi;

yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 2,1 foizini tashkil etdi.


Hududlar kesimida soni

(birlikda)

Jizzax sh.	166
Zomin t.	32
G'allaorol t.	32
Sh.Rashidov t.	21
Baxmal t.	18
Paxtakor t.	12
Forish t.	11
Zarbdor t.	10
Mirzacho'l t.	8
Yangiobod t.	7
Do'stlik t.	6
Zafarobod t.	5
Arnasoy t.	3

Yillar kesimida soni

(birlikda)




Sog'liqni saqlash
sohasidagi
faoliyat



Yashash uchun joy
bilan ta'minlangan
holda parvarishlash

17



(2024- yil 1- noyabr holatiga)

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**



Jizzax sh.	141
Sh.Rashidov t.	73
Paxtakor t.	25
Zomin t.	24
Baxmal t.	21
G'allaorol t.	19
Zarbdor t.	18
Mirzacho'l t.	13
Arnasoy t.	12
Do'stlik t.	12
Forish t.	8
Yangiobod t.	6
Zafarobod t.	6

2024- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 2,0 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 74,6 foizni tashkil etdi;
- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining korxonalar soni 23,5 foizni;
- pochta va kuryerlik yo'nalishidagi korxonalar soni 1,9 foizni tashkil etgan.

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha umumiylumot

(2024- yil 1- noyabr holatiga)

Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quydagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hодисаларни tahlil qilish va prognozlashtirish.

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)

Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)

12 065

mas'uliyati cheklangan jamiyat

75,7

2 235

xususiy korxonalar

14,0

1 420

oilaviy korxonalar

8,9

15

aksiyadorlik jamiyat

0,1

206

boshqalar

1,3

(2024- yil yanvar-oktabr holatiga)

Mas'uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatları bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zları qo'shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatları bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Jizzax sh.	730
Zomin t.	323
Sh.Rashidov t.	318
Forish t.	307
G'allaorol t.	288
Baxmal t.	261
Arnasoy t.	257

Zarbdor t.	199
Do'stlik t.	137
Paxtakor t.	105
Mirzacho'l t.	102
Yangiobod t.	101
Zafarobod t.	76

(2024- yil noyabr holatiga)


Amaldagi 15 941 mingta tijorat korxona va tashkilotlaridan 2024- yil 1- noyabr holatiga ma'suliyati cheklangan jamiyatlar 12 065 tani tashkil etib, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mazkur korxonalar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng ko'p tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 32,8 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 21,2 foiz, sanoat – 13,9 foiz, qurilish – 9,2 foiz.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Jizzax sh.	3 555
Sh.Rashidov t.	1 787
Zomin t.	997
Baxmal t.	982
G'allaorol t.	907
Forish t.	804
Zarbdor t.	615


Arnasoy t.	559
Do'stlik t.	456
Paxtakor t.	451
Mirzacho'l t.	401
Zafarobod t.	300
Yangiobod t.	251

(2024- yil yanvar-oktabr holatiga)

Xususiy korxona – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e’tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirdorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxona o‘z mulkida alohida mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)


G‘allaorol t.	116
Paxtakor t.	54
Zafarobod t.	32
Jizzax sh.	21
Zarbdor t.	14
Zomin t.	10
Arnasoy t.	9

Yangiobod t.	9
Sh.Rashidov t.	7
Forish t.	4
Do‘slik t.	2
Baxmal t.	1
Mirzacho‘l t.	1

(2024- yil 1- noyabr holatiga)

2024- yil 1- noyabr holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni o'zaro taqqoslanganda, ikkinchi o'rinni xususiy korxonalar egallagan. Xususiy korxonalar sonining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan G 'allaorol – 417 ta, Forish – 347 ta, Jizzax shahrida – 296 ta, Zomin – 220 ta va Paxtakorda – 185 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan savdo sohasida – 866 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – 471 ta, sanoatda – 261 ta va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – 208 ta.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

G'allaorol t.	417
Forish t.	347
Jizzax sh.	296
Zomin t.	220
Paxtakor t.	185
Sh.Rashidov t.	125
Yangiobod t.	115

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2024- yil yanvar-oktabr holatiga)

Oilaviy korxonaning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko’rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo’lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektiidir.

Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Jizzax sh.	124
Sh.Rashidov t.	85
Zomin t.	52
G’allaorol t.	45
Baxmal t.	30
Zarbdor t.	26

Paxtakor t.

14

Yangiobod t.

9

Zafarobod t.

7

Arnasoy t.

6

Do’stlik t.

6

Mirzacho'l t.

6

Forish t.

1


(2024- yil 1- noyabr holatiga)

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024- yil 1- noyabr holatiga ko'ra 1 420 tani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: sanoat – 34,1 foiz, savdo – 31,0 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 16,4 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 9,9 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Jizzax shahri – 23,2 foiz, Sharof Rashidov – 18,2 foiz, Zomin tumanlarida – 13,0 foiz va G'allaorol – 11,8 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


Yillar kesimida soni

(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni

(birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Jizzax sh.	329
Sh.Rashidov t.	258
Zomin t.	184
G'allaorol t.	168
Paxtakor t.	134
Zarbdor t.	85
Baxmal t.	64

Do'stlik t.	51
Zafarobod t.	51
Forish t.	32
Mirzacho'l t.	26
Yangiobod t.	22
Arnasoy t.	16

(2024- yil yanvar-oktabr holatiga)

21

Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish

Mavsumiy va ko'p yillik ekinlar yetishtirish, chorvachilik, ovchilik va dehqonchilik bu bo'limning asosiy yo'nalishlari bo'lib, fermer xo'jaliklarining ulushi yangi tashkil etilgan fermer xo'jaliklari umumiyligi sonining 100,0 foizini tashkil etadi



O'rmonchilik va yog'och tayyorlash



Ushbu bo'limning eng muhim yo'nalishlari yog'och tayyorlash va o'rmon bo'Imagan o'rmon mahsulotlarini yig'ish bo'lib, ularning ulushi yangi tashkil etilgan fermer xo'jaliklari mavjud emas.

Baliq ovlash va akvakultura


Baliq ovlash va akvakultura vakillari baliqchilik bo'limi faoliyatining asosiy yo'nalishi bo'lib, ularning fermer xo'jaliklari sonidagi ulushi yangi tashkil etilgan fermer xo'jaliklari mavjud emas.



Yillar kesimida soni (birlikda)

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Zarbdor t.	7
Do'stlik t.	4
G'allaorol t.	3
Sh.Rashidov t.	2
Yangiobod t.	2
Arnasoy t.	1
Baxmal t.	1
Paxtakor t.	1



(2024-yil 1-noyabr holatiga)

Jizzax viloyatida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda. Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismalaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan.




Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Hududlar bo'yicha fermer xo'jaliklarining salmoqli qismi Baxmal (14,8 foiz), G'allaorol (14,8 foiz) va Zomin (13,0 foiz) viloyatlariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Baxmal t.	1 102
G'allaorol t.	1 100
Zomin t.	970
Sh.Rashidov t.	898
Zarbdor t.	743
Arnasoy t.	500
Zafarobod t.	439
Mirzacho'l t.	433
Do'stlik t.	410
Forish t.	341
Paxtakor t.	323
Yangiobod t.	152
Jizzax sh.	30

Yillar kesimida soni (birlikda)



**Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona
va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot**

(2024- yil yanvar-oktabr holatiga)

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg'armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo'linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.

2024- yil yanvar-oktabr oylarida chet el investitsiyalari ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni o'sish sur'ati 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda 3,1 barobarga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Jizzax sh.	29
Arnasoy t.	6
Zomin t.	6
Sh.Rashidov t.	4
G'allaorol t.	4

Baxmal t. 3

Zafarobod t. 3

Forish t. 2

Paxtakor t. 1

Zarbdor t. 1

(2024- yil 1- noyabr holatiga)

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 205 ta korxonalardan 93 tasi qo'shma korxonalar va 112 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Jizzax sh.	79
Forish t.	24
Sh.Rashidov t.	20
Zomin t.	15
G'allaorol t.	13
Paxtakor t.	10
Arnasoy t.	10


Zafarobod t.	8
Do'stlik t.	6
Baxmal t.	5
Yangiobod t.	5
Mirzacho'l t.	3
Zarbdor t.	3

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Keyingi besh yilda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 6,8 barobarga oshdi.

Yetakchi o'rinni 71 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Turkiya egallagan. Bu respublikada chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiyligi sonining 35,9 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Xitoy (ulushi 32,3 foiz), Rossiya Federatsiyasi (ulushi 21,2 foiz), Buyuk Britaniya (ulushi 4,5 foiz) va AQSh (ulushi 2,5 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

(2024- yil 1- noyabr holatiga)



Mamlakatimizda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberalallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta'minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko'payib bormoqda.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalarning jami soniga nisbatan eng katta ulushi Jizzax shahriga - 40,5 foiz, tumanlar orasida esa Forish – 11,7 foiz, Sharof Rashidov – 9,8 foiz va Zominga – 7,3 foiz to'g'ri keladi.

(2024-yil 1-noyabr holatiga)



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).


Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2016- yil 24- avgustdagি** "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" **275-son** qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida **2024- yil 1- noyabr** holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita O'zbekiston
Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining
www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida,
so'r alayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib,
axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.



PRESS-RELIZ

